

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

XUJAMATOV XALIMJON ERGASHEVICH

**IoT ASOSIDA TELEKOMMUNIKATSIYA QURILMALARI GIBRID
ENERGIYA TA‘MINOTI MANBALARINI AVTOMATLASHTIRILGAN
MONITORING MODEL VA ALGORITMLARI**

**05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari
va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract Doctoral (DSc) dissertation

Xujamatov Xalimjon Ergashevich

IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya taʼminoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring model va algoritmlari.....3

Хужаматов Халимжон Эргашевич

Модели и алгоритмы автоматизированного мониторинга гибридных источников энергоснабжения телекоммуникационных устройств на основе IoT.....27

Khujamatov Halimjon Ergashevich

Models and algorithms of automated monitoring of hybrid energy supply sources of telecommunication devices on IoT based55

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

XUJAMATOV XALIMJON ERGASHEVICH

**IoT ASOSIDA TELEKOMMUNIKATSIYA QURILMALARI GIBRID
ENERGIYA TA‘MINOTI MANBALARINI AVTOMATLASHTIRILGAN
MONITORING MODEL VA ALGORITMLARI**

**05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va
qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasining mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/T653 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Siddikov Ilxomjon Xakimovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xamdamov Utkir Raxmatillaevich**
texnika fanlari doktori, professor

Parsiev Saydiyaxad Salixodjaevich
texnika fanlari doktori, professor

Yusupbekov Azizbek Nodirbekovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-65-44; faks: (99871) 238-65-52; e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.:(+99871) 238-65-44).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ da tarqatildi.
(2024-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

B.Sh.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

M.S.Saitkamolov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

D.Y.Irgasheva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda telekommunikatsiya tizimlarining uzluksiz va sifatli hizmat ko'rsatishlarini ta'minlashda ularning energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish va kelajakda iste'mol uchun ishlab chiqilishi kerak bo'lgan energiya quvvatini sun'iy intellekt asosida bashorat qilish usul, model, algoritmlari va dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan telekommunikatsiya qurilmalari energiya ta'minoti manbalarini kattalik va parametrlarini monitoringi uchun axborot-o'lchov vositalarini, texnik hamda dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqishga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda ham telekommunikatsiya qurilmalarining energiya ta'minoti manbalarini va energiya iste'molini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoringi va sun'iy intellekt asosida bashorat qilish tuzilmasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda telekommunikatsiya qurilmalarini ishonchliligini oshirishda energiya ta'minoti manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring va sun'iy intellekt asosida bashorat qilish usul, model, algoritm, vositalari hamda tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu sohada, jumladan telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringida bir, ikki va uch fazali toklarni kuchlanishga o'zgartiruvchi qurilmasini yaratish, simsiz sensor (ZigBee) tarmog'ini ishga tushirish, simsiz sensor tarmog'ining ishonchlilik ko'rsatkichlarini oshirish modeli va algoritmlari, sensorlardan olingan ma'lumotlarni uzatish, qayta ishlash va ma'lumotlar bazasiga saqlash algoritmi, tizim strukturasi, ma'lumotlar bazasi va ularni taqdim etish formati, sun'iy intellekt asosida bashorat qilish usuli hamda dasturiy ta'minotlari va texnik yechimlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. IoT hamda sun'iy intellekt asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringi va bashorat qilish tizimining kompleksini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirishga, telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minot manbalarini IoT asosidagi avtomatlashtirilgan monitoring tizimi va sun'iy intellekt asosida bashorat qilish tizimlarini ishlab chiqishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan " ... iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ... iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ... ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish"¹ kabi vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minot manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring tizimi axborot-o'lchov vositalarini va manbalarini ishlab chiqaradigan energiyasi hamda telekommunikatsiya qurilmalari iste'mol quvvatini sun'iy intellekt asosida

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

bashorat qilish modulini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-son “O‘zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son “2019 - 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyuldagi 452-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini yuritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring model va algoritmlari, uch pog‘onali IoTning birlamchi sensor pog‘onasi bo‘lib, ularning tuzilish tamoyillari, parametrik loyihalashga va asosiy tavsiflarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, shu jumladan, University of Wisconsin–Madison, University of Massachusetts Dartmouth, Iowa State University (AQSH), Beihang University, Zhejiang University, Huawei kompaniyasi (Xitoy), Technical University of Denmark (Daniya), City University of London (Buyuk Britaniya), Technische Universität Berlin (Germaniya), NXP Semiconductors (Gollandiya), British Columbia Institute of Technology (Kanada), Amity University (Hindiston), N.E.Bauman nomidagi Moskva Davlat texnika universiteti (MDTU), M.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti (MDU) (Rossiya Federatsiyasi), Belorussiya Davlat informatika va radioelektronika universiteti (BDIRU) (Belorussiya), N.Gumilev nomidagi Yevroosiyo Davlat universiteti (YEDU) (Qozog‘iston), Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida (TATU) (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Jahonda IoT asosidagi telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringi masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida qator natijalar olingan: University of Wisconsin–Madison, University of Massachusetts Dartmouth, Iowa State University (AQSH), Beihang University, Zhejiang University, Huawei kompaniyasi (Xitoy), Technical University

of Denmark (Daniya), City University of London (Buyuk Britaniya), British Columbia Institute of Technology (Kanada), Amity University (Hindiston), N.E.Bauman nomidagi MDTU, M.Lomonosov nomidagi MDU (Rossiya Federatsiyasi), TATU (O'zbekiston)da monitoring tizimini modellari va usullari ishlab chiqilgan, Huawei kompaniyasi (Xitoy), Technische Universität Berlin (Germaniya), NXP Semiconductors (Gollandiya), Amity University (Hindiston), MDTU, M.Lomonosov nomidagi MDU (Rossiya Federatsiyasi), TATU (O'zbekiston)da simsiz sensor tarmog'ini ishonchliligi modellashtirish va vaqt ehtimollik tavsiflari tadqiq qilingan.

Dunyoda gibril energiya ta'minoti manbalarini monitoring va bashorat qilish masalalarini yechish uchun quyidagi istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmoqda: modellar va algoritmlarni ishlab chiqish, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqarilgan energiya va iste'molini bashorat qilish usul va modellarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibril energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringi bir, ikki va uch fazali toklarini kuchlanishga o'zgartiruvchi sensorlarini yaratish, monitoring tizimi simsiz sensor (ZigBee) tarmog'ini ishga tushirish hamda tarmoq ishonchlilik ko'rsatkichini oshirish modeli, IoT sensorlaridan olingan ma'lumotlarni uzatish, qayta ishlash, ma'lumotlar bazasiga saqlash algoritmi, monitoring tizimi strukturasi, ma'lumotlar bazasi va ularni taqdim etish formati, manbalarini ishlab chiqaradigan energiyasi hamda iste'mol quvvatini sun'iy intellekt asosida bashorat tadqiqi bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu tadqiqot yo'nalishiga Schaumburg H., Ritchie E., Hanitch R., Rampias I., Chedid R., De A.R., Zhou W., Zhang L., Park J.S., Senjyu T., Arul P.G., Upadhyay S., Crespi N., Mohanty S., Niu M., Yang Y., Raza M., Monjoly S., Zhang X., Wang J., Sharifian A., Ghadi M.J., Ghavidel S., Li L., Zhang J., Dehghani M., Bissing D., Klein M.T., Ma M., Wang Z., Prince W. Khan., Mijanur R., Noviskiy P.V., Urakseev M.A. va boshqa taniqli horijiy olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Shuningdek, belgilangan muammoni tadqiq qilish masalalariga respublikamiz olimlari Yusupbekov N.R., Igamberdiyev X.Z., Azimov R.K., Gulyamov Sh.M., Abdukayumov A.A., Shipulin Yu.G., Xalikov A.A., Amirov S.F., Plaxtiyev A.M., Isayev R.I., Siddikov I.X., Maxkamjonov B., Rakhmonov I.U., Pisetskiy Y.V., D.T.Xasanov va boshqalar ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibril energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring va sun'iy intellekt asosida bashorat qilishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni kompleks qo'llash, monitoring va bashorat jarayoni uchun yangi turdagi sensorlarni yaratish, IoT sensorlaridan olingan ma'lumotlarni uzatish, qayta ishlash, ma'lumotlar bazasiga saqlash algoritmi, monitoring tizimi strukturasi, ma'lumotlar bazasi va ularni taqdim etish formatini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy tadqiqot rejasining

ITD-17-015 - sonli “O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiyalar vositalari va tarmoqlarining ishlash barqarorligini tadqiq qilish” (2009-2011), BV-A3-027 - sonli “Mustaqil energiya manbali binoning elektr ta‘minoti boshqaruv tizimini ishlab chiqish va joriy etish” (2017-2018), 574049-EPP-1-2016-1-IT-EPPKA2-CBHE-JP “Modernization of the Curricula in sphere of smart building engineering - Green Building (GREB)” (2016-2019), 7/18 - sonli «Gibrid energiya manbalarini qo‘llash orqali kommunikatsiyalar va aloqa obyektlarining energetik samaradorligini oshirish hamda energetik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish» (2018-2020), AKT-A-2021-3 «Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi energotizim chiqish parametrlarini tadqiq qilish dasturiy ta‘minoti va simulyatsion stendini tajribaviy namunasini yaratish va ishlab chiqish» (2021-2023) hamda Uzb-Ind-2021-94 «CRN-ga asoslangan IoT-dan foydalaniladigan «Aqlli shahar» tizimlarida energiya tejamkor aloqa va ma‘lumotlar oqimi» (2021-2023) xalqaro loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi IoT va sun‘iy intellekt asosida telekommunikatsiya qurilmalarining gibrid energiya ta‘minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring tizimi va bashoratlash model hamda algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti manbalari turlari hamda ularni monitoring usullari va vositalarini tahlil qilish;

telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti tizimining IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoringi sensorlarini modellashtirish, loyihalash va ishlab chiqish;

avtomatlashtirilgan monitoringi simsiz sensor tarmog‘ini ishga tushirish, ularning qurilmalarini qo‘shish va modullar orasida ma‘lumotlarni uzatish model va algoritmlarini yaratish;

avtomatlashtirilgan monitoring simsiz sensor tarmog‘ining ishonchlilik ko‘rsatkichini hisoblashning analitik modeli va algoritmini yaratish;

telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti manbalarini IoT asosidagi avtomatlashtirilgan monitoringi imitatsion modelini yaratish;

IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringi arxitekturasi, strukturasi, ma‘lumotlar bazasi va taqdim etish formatini ishlab chiqish;

sun‘iy intellekt asosida gibrid energiya ta‘minoti manbalarini energiyasini, telekommunikatsiya qurilmalari iste‘mol quvvatini bashorat qilish modelini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti manbalari, ularni IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring tizimi qurilmalari va vositalari hamda bashorat qilish moduli olingan.

Tadqiqotning predmetini telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoringi va sun‘iy intellekt asosida bashorat qilish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida signal o‘zgartirish, elektr va magnit zanjirlarining taqsimlangan qiymat va parametrlarini hisoblash, xatoliklar

nazariyasi, graflar nazariyasi, ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi, raqamli ishlov berish va uzatish, tarmoqlarni loyihalash, imitatsion modellashtirish, mashinaviy o'qitish, chuqur o'qitish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringi uchun bir, ikki va uch fazali toklarni magnit oqimlarining o'zaro ta'sirini hisobga olish asosida ikkilamchi kuchlanish ko'rinishdagi signalga o'zgartiruvchi qurilmaning modeli yaratilgan;

avtomatlashtirilgan monitoring tizimi simsiz sensor tarmog'ini rad etmasdan ishlash ehtimolligini Mesh topologiyasi asosida oshirish imkonini taqdim etuvchi model va algoritmi yaratilgan;

telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minoti manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring jarayonini amalga oshiruvchi usul va arxitektura ishlab chiqilgan;

IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring jarayonida gibrid energiya ta'minoti manbasi sensorlaridan olingan axborotlarni uzluksiz uzatish va ma'lumotlar markazi serveriga saqlashni ta'minlovchi algoritmlar yaratilgan;

telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minoti manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring tizimini real vaqt mobaynida ishlash jarayonini optimallashtiruvchi imitatsion model yaratilgan;

sun'iy intellekt asosida gibrid energiya ta'minoti manbalarining ishlab chiqaruvchi va telekommunikatsiya qurilmalarining iste'mol qiluvchi energiyasini bashoratlash aniqligini oshiruvchi model yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringi uchun bir, ikki va uch fazali tokini kuchlanishga o'zgartiruvchi qurilma ishlab chiqilgan;

IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringi va sun'iy intellektli bashorat qilish dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

sensorlar, mikrokontroller boshqaruv bloki va IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minotini manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringi tuzilmasi, ma'lumotlar bazasi va ularni taqdim etish formati ishlab chiqilgan;

IoT asosida gibrid energiya ta'minoti manbalarining avtomatlashtirilgan monitoringi axborot-o'lchov moduli, apparat va dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minoti manbalarining avtomatlashtirilgan monitoring tizimi va bashoratlash uchun ishlab chiqilgan qurilmalari, tadqiqot modellari, olingan tadqiqotlar natijalarini umumqabul qilingan mezonlar asosida qiyosiy solishtirish orqali izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring va bashorat qilish tizimi modeli va algoritmi, simsiz sensor tarmoq modullari orasida ma'lumotlarni uzatish algoritmi, simsiz sensor tarmog'ining ishonchliligini oshirish modeli va algoritmi,

sensorlaridan olingan ma'lumotlarni uzatish, qayta ishlash, ma'lumotlar bazasiga saqlash algoritmi, monitoring tizim tuzilmasi, ma'lumotlarni taqdim etish formati, sun'iy intellekt asosida bashorat qilish modelini yaratilganlik bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati avtomatlashtirilgan monitoringi bir, ikki va uch fazali toklarini kuchlanishga o'zgartiruvchi qurilmasini, bashorat qilish dasturiy ta'minoti, sensorlar, mikrokontrollerli boshqaruv bloki va monitoring tizimi strukturasi, ma'lumotlar bazasi hamda IoT asosida gibril energiya ta'minoti manbalarining o'lchov va nazorat tizimi axborot-o'lchov modulini, apparat va dasturiy ta'minotini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibril energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring model va algoritmlari bo'yicha olingan natijalari asosida:

“Tokni kuchlanishga o'zgartirgich” qurilma uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan ixtiroga patent olingan (№IAP 06646 - 2021). Natijada IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoringi bir, ikki va uch fazali toklari hosil qilgan magnit oqimlarining o'zaro tasirini hisobga olish orqali sensorning sezgirligini 6 marotagacha orttirish imkonini bergan;

IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring tizimi simsiz sensor tarmog'ini ishga tushirish, oxirgi qurilmalarini qo'shish va modullar orasida ma'lumotlarni uzatish algoritmlari hamda avtomatlashtirilgan monitoring tizimini real vaqt davomida ishlash jarayonini imitatsion modeli Raqamli texnologiyalar vazirligi tasarrufidagi korxonalarda, xususan Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi DUKga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 23-martdagi 33-8/1897-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida sensorlar, mikrokontroller bloki va IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibril energiya ta'minotini manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring tizimini qo'llash orqali energiya ta'minoti manbalariga texnik xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiya vaqtini 7-8 %ga qisqartirish imkonini bergan;

IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibril energiya ta'minotini manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring tuzilmasi, ma'lumotlar bazasi va ularni taqdim etish formati hamda avtomatlashtirilgan monitoring tizimining Mesh topologiyali simsiz sensor tarmog'i Raqamli texnologiyalar vazirligi tasarrufidagi korxonalarda, xususan “O'zbektelekom” AK Toshkent filialining Yangibozor hamda Sirdaryo filialining Guliston tuman telekommunikatsiyalar bog'lamlariga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 23-martdagi 33-8/1897-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida ixtiroga olingan patent, yaratilgan qurilma va ishlab chiqilgan modellar, algoritmlar va dasturiy ta'minotlarni amaliyotga qo'llash orqali telekommunikatsiya qurilmalari ishlash ishonchligi oshirilgan hamda energiya va resurslarni tejashdagi iqtisodiy samara yiliga 2-3 %ni tashkil etdi;

sun'iy intellekt asosida gibril energiya ta'minoti manbalarini ishlab chiqaradigan energiyasi va telekommunikatsiya qurilmalari iste'mol quvvatini bashorat qilish modeli hamda monitoring tizimi simsiz sensor tarmog'ini ishga tushirish, oxirgi qurilmalarini qo'shish va modullar orasida ma'lumotlarni uzatish algoritmlari Raqamli texnologiyalar vazirligi tasarrufidagi korxonalarda, xususan

“O‘zbektelekom” AK Toshkent filialining Yangibozor, Sirdaryo filialining Guliston tuman telekommunikatsiyalar bog‘lamalariga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 23-martdagi 33-8/1897-son ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida IoT asosida elektr energiya iste’molini monitoring va bashorat qilish orqali tizimlarining yuqori aniqligi, qurilmalarni uzluksiz ishlashi ta’minlanganligi sababli samaradorlikni 4-5 % ga oshirish ta’minlandi;

gibrid energiya ta’minoti manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring tizimini real vaqt davomida ishlash jarayonini imitatsion modeli va sun’iy intellekt asosida bashorat qilish modeli Raqamli texnologiyalar vazirligi tasarrufidagi korxonalarda, xususan “UMS” MCHJga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 23-martdagi 33-8/1897-son ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida mobil aloqa baza stansiyalari iste’mol quvvatini 97 % gacha aniqlikda bashorat qilish va mobil aloqa baza stansiyalari gibrid energiya ta’minoti manbalarida nosozliklarini o‘z vaqtida aniqlash hamda tezkor xizmat ko‘rsatish orqali stansiyaning ishlash samaradorligini 3-4 % ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotlar natijalari 10 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha jami 65 ta ilmiy ishlar, ulardan 2 ta monografiya, 1 ta O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining, 1 ta Avstraliya hukumati Patent offisining ixtiroga patentlari olingan, 35 ta ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan 28 ta horijiy, 7 ta respublika miqyosidagi jurnallarda, 10 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy konferensiyalarida tezis materiallari chop etilgan va 9 ta EHM uchun ishlab chiqilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi va 105 ta rasm, 13 ta jadvaldan iborat.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, natijalarning ishonchligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalga joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Telekommunikatsiya qurilmalarining gibrid energiya ta’minoti manbalari, ularni IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoringi**» deb nomlangan birinchi bobida telekommunikatsiya qurilmalarining barqaror ishlashiga ta’sir etuvchi omillar, gibrid energiya ta’minoti manbalari, energiya ta’minoti manbalarini IoTga asoslangan avtomatlashtirilgan monitoring tizimi, unda

qo‘llaniladigan zamonaviy sensorlar, aloqa vositalari va foydalaniladigan ilovalar tahlil qilingan va ko‘rib chiqilgan.

So‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya ta‘minoti (QTET) tizimidan foydalangan holda telekommunikatsiya qurilmalarini uzluksiz ishlashi amalga oshirib kelinmoqda. Telekommunikatsiya qurilmalarini uzluksiz ishlashini ta‘minlash maqsadida quyosh, shamol, kabi qayta tiklanadigan energiyalardan gibrid holda foydalanish barqarorligi tufayli bunday telekommunikatsiya qurilmalarini “Yashil telekommunikatsiya qurilmalar” deb ham atalib kelinmoqda.

Bugungi kunga kelib IoTga asoslangan avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarida elektr energiya isrofini minimallashtirish va an‘anaviy elektr tarmoqlari muammolarini hal qilish, samaradorlik, ishonchlik, xavfsizlik, barqarorlik va elektr energiyasiga bo‘lgan talabni oshirishda mumkin bo‘lgan yutuqlarni hal qilish uchun istiqbolli yechim sifatida rivojlanib kelmoqda hamda IoTga asoslangan avtomatlashtirilgan monitoring tizimining umumiy tuzilishi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Energiya tizimlarida quvvat va axborot oqimini taqdim qiluvchi IoTga asoslangan monitoring tizimini tuzilish sxemasi

IoTga asoslangan monitoringning to‘rtta asosiy quyi tizilmasini quyidagilar tashkil etadi: energiya ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va energiya iste‘moli. Quyi tizimlarning barchasiga IoTni qo‘llash mumkin va ularni yaxshilash uchun istiqbolli yechim sifatida namoyon bo‘lib, avtomatlashtirilgan monitoringning asosiy elementiga aylantiradi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan monitoring hududiy tarmoq (HAN), qo‘shni tarmoqlar (NAN) va keng hududiy tarmoqlar (WAN) kabi tarmoqlardan iborat bo‘ladi. Telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta‘minoti manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoringi uchun uch pog‘onali arxitekturasi tuzilishi foydalanishga qulay hamda adaptiv jixatdan boshqa turdagi arxitekturalardan avzalliklarga ega.

Ushbu pog‘onalar uchun keltirilgan masalalar bir - biri bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanib, bunda ishlab chiqiladigan modellar ham o‘zaro bog‘liq hisoblanadi.

Avtomatlashtirilgan monitoringning faoliyatini tadqiq etish metodologiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda pog‘onalarning o‘zaro bog‘liqligi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Pog'onalarining o'zaro bog'liqligi

Monitoringni pog'onalararo umumiy jarayonini ishonchlilik va samaradorligini ifodalash uchun M qabul qilindi. Monitoring tizimining umumiy ishonchlilik va samaradorligi barcha pog'onalar ishlash jarayoniga bog'liq bo'lib, u quyidagicha to'plam orqali ifodalanadi:

$$M = A \cup B \cup C, \quad (1)$$

bu yerda: A – monitoring tizimida 1-pog'onaning asosiy ko'rsatkichlari, B – monitoring tizimida 2-pog'onaning asosiy ko'rsatkichlari, C – monitoring tizimida 3-pog'onaning asosiy ko'rsatkichlari.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki avtomatlashtirilgan monitoring tizimi ishonchliligi va samaradorligini oshirish uchun quyidagi masalalarni hal etish talab etiladi:

- monitoring jarayoning 1-pog'onasida sensorning funksional imkoniyati kengaytirilgan turi (F)ni yaratish, sezgirligi (K)ni oshirish, xatoliklar manba (Δ)ni kamaytirish va ishonchliligi (P)ni oshirish;

- monitoring jarayoning 2-pog'onasida sensorlardan ma'lumotlarni yig'ish va uzatish uchun maqbul topologiya (T)ni tanlash, tarmoq ishonchliligi (P)ni oshirish hamda taklif etilayotgan tarmoq uchun vaqt-extimollik tavsiflari (V)ni tadqiq etish;


- 3-pog'onada telekommunikatsiya qurilmalari gibril energiya ta'minoti manbalarini ishlab chiqargan energiyasi va qurilmalar iste'mol quvvatini bashorat qilishning samarali usul va modellarini yaratish orqali bashoratlash modeli (Q)ni baholash aniqligini, qabul qilgichning ishchi xarakteristikasi (ROC)ni hamda bashoratlashni aniqligi (J)ni oshirish.

Mazkur metodologiya asosida dissertatsiya ishida 3 - pog'onali IoT arxitektirasi asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibril energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring tizimini arxitekturasi ishlab chiqildi va barcha pog'onalarining bir - biri bilan bog'liqligini inobatga olgan holdi dissertatsiya vazifalari belgilab olindi.

Dissertatsiyaning **“Avtomatlashtirilgan monitoring sensorlarini modellashtirish va tasniflarini tadqiq etish”** deb nomlangan ikkinchi bobi IoT

asosida monitoringning birlamchi sensor qatlamida qoʻllaniluvchi sensorlarni tuzilishi va modellashtirish tamoyillari, asosiy zanjirlari modellari va tadqiqoti, oʻzgartirish boʻlaklarini modellashtirishga bagʻishlangan.


IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya taʼminoti manbalarining avtomatlashtirilgan monitoringida qoʻllanuvchi bir, ikki va uch fazali sensorning koʻrsatilgan magnit oʻzak tuzilma turlari hamda unda qoʻllangan elementlar asosida tuzilish sxemasi 3 - rasmda keltirilgan.



3 - rasm. Avtomatlashtirilgan monitoringning bir, ikki va uch fazali toklari sensorini tuzilish sxemasi


Monitoringning bir, ikki va uch fazali toklarni kuchlanishlarga oʻzgartirgich sensori tarkibiga uchta Π -shakldagi magnit oʻzaklarni 1, 2 va 3, ularning asosida elektr tarmogʻining uch fazali simlarining birlamchi oʻramlari 4, 5 va 6 joylashtiriladi. Sensorlarning Π -shakldagi magnit oʻzakning parallel sterjenlarining orasida quyi sterjenlarida qoʻshimcha oʻzaklar 7, 8 va 9 joylashtirilib, qoʻshimcha elementlar orasidagi havo boʻshligʻida 7, 8 va 9 hamda magnit oʻtkazuvchilarning yuqori sterjenlari orasida 1, 2 va 3 izolyatsion plastinkalarda 13, 14 va 15 sezgir elementlar 10, 11 va 12 joylashtiriladi. Barcha Π -shakldagi sensorlarning uchta magnit oʻzaklari 1, 2 va 3 dielektrik materildan tashkil topgan umumiy asosga (16) joylashtiriladi.

Monitoring jarayonida bir, ikki va uch fazali sensorning signal oʻzgartirishini amalga oshirish uchun sezgir elementlar chiqishiga mikrokontrollerli boshqarish bloki va simsiz telekommunikatsiya tarmoq elementi joylashtiriladi hamda bu asosda sensor quvvat manbai bilan boʻlanadi (4-rasm).




4 - rasm. Bir, ikki va uch fazali toʻkni masofadan oʻlchash imkonini taqdim etuvchi IoT sensorining tuzilishi

Monitoring jarayonida sensor magnit o‘zaklaridagi magnit oqimini o‘zgarishi asosiy ro‘l o‘ynashini inobatga olib bir hil bo‘lmagan parametrlar bilan sensor zanjirlarini modellashtirish va hisoblash amalga oshirilishi talab etiladi hamda sensorning signal o‘gartirish ekvivalent sxemasi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Sensorning signal o‘zgartirish zanjirlarini graf model asosidagi ekvivalent sxemasi

Monitoring jarayonida telekommunikatsiya obektlari faoliyatiga ta’sir etmagan holda manbalarni nazorat qilishda axborot-o‘lchov bloki sezgirligiga qo‘yiladigan talablar sensorlarning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Sensorning graf va analitik modeli asosida olib borilgan tadqiqotlar natijalari olingan statik tavsiflari 6-rasmda keltirilgan.




6-rasm. Avtomatlashtirilgan monitoring sensorining graf va analitik modellari asosida olib borilgan tadqiqotlar natijalari (1- $l_{x.o}=0,005$; 2- $l_{x.o}=0,04$)

Monitoring sensorining 7-rasmda olingan statik tavsiflari havo oralig‘i qalinligi $l_{x.o}=0,005$ m va $l_{x.o}=0,04$ m ga teng bo‘lgandagi sezgirligi quyidagiga teng:

$$K_1 = 1,2 \frac{MB}{A}; \quad K_2 = 0,2 \frac{MB}{A}. \quad (2)$$

Avtomatlashtirilgan monitoring sensorining sezgirligini K_1 va K_2 miqdorlar geometrik o‘lchovlaridan bo‘lgan havo oralig‘iga bog‘liq ravishda 6 marotagacha orttirish imkonini mavjud ekanini ko‘rsatdi.

IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring sensorlarning xatoliklarini tahlil qilish va baholash uchun 7 - rasmda tasvirlangan funksional sxemasi grafli modelidan foydalaniladi.



7 - rasm. IoT asosida gibridd energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring sensorining funksional sxemasi

1- blokda sensorning I_{lf} faza tokini U_{μ} magnit yurituvchi kuchga o'zgartirish bo'lib o'tadi, 2- blokda F_{μ} magnit yurituvchi kuch mos MO'da F_{μ} magnit oqimini vujudga keltiradi, 3- blokda tekis o'lchash cho'lg'amining o'yig'ida joylashishi tufayli yassi o'lchash cho'lg'amning chiqishida U_{e2} chiqish elektr yurituvchi kuchi induksiyalanadi. Sensorning yig'indi xatoligini baholash uchun 1, 2 - va 3- bloklarida vujudga keladigan xatoliklarni alohida baholaymiz:

Monitoring sensorining xatoligi: 1. $I_{e1} \rightarrow U_{\mu}$ o'zgartirish xatoligini, ya'ni $\delta_1=0,2$ ($\pm 0,2\%$ - birlamchi nominal qiymat), 2. $U_{\mu} \rightarrow F_{\mu}$, ya'ni $\delta_2=0,1$ va 3. $F_{\mu} \rightarrow U_{e2}$, ya'ni $\delta_3=0,1$ bo'lgan miqdorlar asosida aniqlanadi:

$$\delta_{\Sigma} = \sqrt{\delta_1^2 + \delta_2^2 + \delta_3^2} = \sqrt{0,2^2 + 0,1^2 + 0,1^2} = 0,24. \quad (3)$$

Sensorning xatoliklarining barcha tashkil etuvchilarini additiv va multiplikativ xatoliklarga bo'lamiz hamda ularning paydo bo'lish ehtimolligining taqsimot qonuniga muvofiq ularning o'rtacha kvadratik og'ishi topiladi. Ishlab chiqilgan sensor uchun xatolikning entropiya og'ish qiymati quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$\Delta = \delta_{\Sigma} \cdot K_e = 0,24 \cdot 2,07 = 0,49. \quad (4)$$

bu yerda: δ_{Σ} - xatolik og'ish qiymatlari yig'indisi, K_e - entropiya koeffitsiyenti (normal taqsimlanish qonuni uchun $K_e = 2,07$).

Olib borilgan hisoblashlar va eksperimentlar natijasida, avtomatlashtirilgan monitoring tizimi sensorining entropiya xatoligi $\Delta=0,49\%$, tadqiq qilinayotgan avtomatlashtirilgan monitoring tizimi sensori uchun aniqlik sinfi zahira bilan $0,5\%$ ni tashkil etadi.

Telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minoti manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring sensorlarining ishonchliligini hisoblash elementli (apparaturalar) va funksional (parametrik) turlarga bo'linadi.

Sensor elementlarining barcha ish qobiliyatli holatlarining ehtimolliklarini qo'shib chiqish bilan sensorning ish qobiliyati ehtimollikini hisoblanadi:

$$P = P_1 + P_2 + P_3 + P_1 \cdot P_2 \cdot P_3 - P_1 \cdot P_2 - P_2 \cdot P_3 - P_1 \cdot P_3. \quad (5)$$

Halokatli rad etishlar ehtimolligi $P_{xal}=0,99$ ekanligini hisobga olingan holda gibrid energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring tizimi sensorlarining umumiy ishonchliligi quyidagini tashkil etadi:

$$P = P_{xal} \cdot P_{par} = 0,99 \cdot 0,99 = 0,98. \quad (6)$$

Olib borilgan tadqiqotlar natijasidan ko'rinib turibdiki, atrof-muhit harorati va materiallarning eskirishi ta'sir qilganida parametrik ishonchlilik qiymati o'zgarishiga eng katta ta'sir qiladi.

Dissertatsiyaning «**Monitoring tizimi simsiz sensor tarmog'ini modellashtirish va tavsiflarini tadqiq etish**» deb nomlangan uchinchi bobi IoT asosida monitoring tizimining simsiz sensor tarmoq xususiyatlari, arxitekturalari, topologiyalari, simsiz sensor tarmoqlarda ma'lumotlarni uzatish, tarmoq ishonchliligi hamda tarmoqning vaqt ehtimollik tavsiflarini tadqiq etilgan.

Hozirgi kunda telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring qilishdagi eng dolzarb masalalaridan biri - bu yagona miqyosli va yuqori samarali tarmoq asosida axborotlar almashinuvini tashkil etish hisoblanadi. Monitoring simsiz sensor tarmog'ining umumiy ishonchliligi P_M modullarining buzilishsiz ishlash ehtimoli va P_{ST} simsiz tarmoqning ishonchliligi ko'paytmasi asosida shakllanadi:


$$P_{SST}(t) = P_M(t) \cdot P_{ST}(t). \quad (7)$$

Monitoring talablariga muvofiq, simsiz sensor tarmog'ining umumiy strukturasi buzilishsiz ishlash ehtimoli P_i bo'lgan ketma-ket modullar zanjiri sifatida ifodalanadi. Bunday holda, simsiz modul tizimining buzilishsiz ishlashining umumiy ehtimoli har bir simsiz modulning ehtimolliklari ko'paytmasi orqali topiladi, ya'ni:

$$P_M = \prod_{i=1}^N P_i, \quad (8)$$

bu yerda: N – avtomatlashtirilgan monitoring tizimida ko'rib chiqilayotgan qismda ya'ni tayanch stansiyalar o'rtasida simsiz sensor tarmoq modullarining soni.

Monitoring jarayonida tarmog'i to'rtta tugundan iborat mesh topologiyasiga asoslangan simsiz sensor tarmog'i tuzilish sxemasi 8-rasmda tasvirlangan.




8-rasm. Mesh topologiyasiga asoslangan simsiz sensor tarmoq (N=4)

Simsiz modul va tugunlar orasida ma'lumotni uzatish kanalining uzilishsiz ishlash ehtimolligi o'zgaruvchan bo'lgan holatda Mesh topologiyasiga asoslangan simsiz sensor tarmoqning ishonchlilik ko'rsatkichi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:


$$P_M^N = 1 - (1 - P_M^N \cdot P_{ST}^{N-1}) \cdot \prod_{i=3}^N (1 - P_M^{i-1} \cdot P_{ST}^{N-1})^{i-2}. \quad (9)$$

Monitoringning Mesh topologiyasiga asoslangan simsiz sensor tarmoqning ishonchlilik ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha ishlab chiqilgan analitik modellar asosida N ta tugundan iborat tarmoqning ishonchlilik ko'rsatkichini hisoblash algoritmi 9-rasmda tasvirlangan.




9-rasm. Simsiz sensor tarmoqning ishonchlilik ko'rsatkichini hisoblash algoritmi

9-rasmda keltirilgan algoritm asosida Python dasturlash muhitida simsiz sensor tarmoqning ishonchlilik tavsiflarini olish dasturi yaratildi. Avtomatlashtirilgan monitoringda kanalning uzilishsiz ishlash ehtimolligi birga teng bo'lgan holatda Mesh topologiyasiga asoslangan simsiz sensor tarmoqning ishonchlilik ko'rsatkichining tarmoq modulini uzilishsiz ishlash ehtimolligiga bog'liqlik tavsifi 10-rasmda va tarmoqning ishonchlilik ko'rsatkichining tugunlar soniga bog'liqlik tavsifi 11-rasmda keltirilgan.



**10-rasm. Simsiz sensor tarmog‘
ishonchlilik ko‘rsatkichini simsiz
modulga bog‘liqlik tavsifi**



**11-rasm. Simsiz sensor tarmoqning
ishonchlilik ko‘rsatkichining
tugunlar soniga bog‘liqlik tavsifi**

Ushbu tavsiflardan ko‘rinib turibdiki monitoringi sensor tarmoq modulini ishonchliligi tugunlar soni $N=6$ bo‘lganida umumiy ishonchlilik 1 ga intilishini aniqlandi. Shuningdek, tugunlar soni $N=3$ ta bo‘lgandagiga nisbatan $N=20$ ga teng bo‘lganida ishonchlilik 54 % gacha oshishga erishilgan.

Telekommunikatsiya qurilmalari energiya ta‘minot manbalari ananaviy hamda qayta tiklanuvchan (gibrid) energiya ta‘minoti manbalaridan tashkil topgan murakkab tuzilmalardan biri hisoblanadi. Sensorlardan va marshrutizatorlardan har bir marshrutizatorga hamda koordinatorga kelib tushadigan paketlar jadalligini aniqlashda graf modelga mos balans tenglamalar tizimi shakllantiriladi.


$$\begin{cases} \lambda_1 = 0,04\lambda_2 + 0,01\lambda_3 + 0,01\lambda_4 + 0,04\lambda_5 + 6; \\ \lambda_2 = 0,04\lambda_1 + 0,04\lambda_3 + 0,01\lambda_4 + 0,01\lambda_5 + 6; \\ \lambda_3 = 0,01\lambda_1 + 0,04\lambda_2 + 0,04\lambda_4 + 0,01\lambda_5 + 6; \\ \lambda_4 = 0,01\lambda_1 + 0,01\lambda_2 + 0,04\lambda_3 + 0,04\lambda_5 + 6; \\ \lambda_5 = 0,04\lambda_1 + 0,01\lambda_2 + 0,01\lambda_3 + 0,04\lambda_4 + 6; \\ \lambda_6 = 0,9\lambda_1 + 0,9\lambda_2 + 0,9\lambda_3 + 0,9\lambda_4 + 0,9\lambda_5. \end{cases} \quad (10)$$

Ushbu balans tenglamalar sistemasini yechib, quyidagi natijalar olinadi:


$$\lambda_1 = \lambda_2 = \lambda_3 = \lambda_4 = \lambda_5 = \frac{20}{3} \approx 6,667; \quad \lambda_6 = 30. \quad (11)$$

Manbalarga o‘rnatilgan sensor tugunlardan ma‘lum vaqt intervallarida signal olishi va olingan ma‘lumotni marshrutizatorga uzatishini hisobga olib, marshrutizatorlarga paketni kelib tushish vaqt intervali taqsimot qonuni sifatida “bir tekis” (Uniform) taqsimot qonuni bo‘yicha hamda paketlarga marshrutizator tugunida xizmat ko‘rsatilish vaqt intervali taqsimot qonuni sifatida “eksponensial” (Exponensial) taqsimot qonunini olinadi.

Simsiz sensor tarmoqning matematik model, tarmoq tugunlari uchun immitatsion model va yaxlit tarmoq uchun immitatsion modellardan olingan λ jadallikka bog‘liq tavsiflari qiyosiy tahlil qilingan. Simsiz sensor tarmoq marshrutizator va kordinatorlardagi paketlar navbatining o‘rtacha uzunligining L jadallikka λ bog‘liqlik 12 va 13 - rasmlarda keltirilgan.




12-rasm. Marshrutizator buferida o'rtacha navbat uzunligining jadallikka bog'liqligi



13-rasm. Koordinator buferida o'rtacha navbat uzunligining jadallikka bog'liqligi

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, avtomatlashtirilgan monitoringi simsiz sensor tarmog'i berilgan boshlang'ich shartlarda ya'ni $\lambda=4$ dan kichik qiymatlarda xizmat ko'rsatish sifatini to'liq ta'minlaydi.


Dissertatsiyaning "IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring modellari va axborot-o'lchov moduli" deb nomlangan to'rtinchi bobi telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring arxitekturasi, monitoring jarayoning imitatsion modeli, algoritmi va dasturiy ta'minotini hamda axborot-o'lchov modulini ishlab chiqish masalalariga bag'ishlangan. Monitoringda o'rnatilgan texnik vositalar to'plamidan masofadan olingan batafsil ma'lumotlar asosida ekspluatatsion va ta'mirlash personali yaroqsizlik sababini tezroq aniqlashi va tuzatishi mumkin bo'ladi (14-rasm).



14-rasm. IoT asosida gibridd energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringini tuzilish sxemasi


bu yerda: MET – markazlashgan energiya ta’minoti; QET - quyosh energiya ta’minoti; SHET - shamol energiya ta’minoti; DG – dizel generatori; AB – akkumulyator batareyasi; $S_1, S_2 \dots S_p$ – sensorlar; MB – ma’lumotlar bazasi

Gibrid energiya ta’minoti manbalarini IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoring uchta pog‘onadan iborat olib borilib, uning umumlashgan tuzilish sxemasi 15-rasmda keltirilgan.




15-rasm. IoT asosida avtomatlashtirilgan monitoringi umumlashgan tuzilish sxemasi

Ushbi taklif etilayotgan metodologiya asosida Proteus dasturiy muhitida telekommunikatsiya qurilmalari gibrid energiya ta’minot manbalarini avtomatlashtirilgan monitoringini loyihalash jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi va imitatsion modelning tuzilish sxemasi 16-rasmda keltirilgan.



16-rasm. Avtomatlashtirilgan monitoring tizimini imitatsion modeli

IoT asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minoti manbalarini avtomatlashtirilgan monitoring modeli simulyatsiya natijasini SHKlar yoki smartfonlarda o'rnatilgan ixtiyoriy veb brauzerda ko'rish imkoniyati mavjud. Natijada 17-rasmda ko'rsatilgan veb interfeys ochiladi va ushbu interfeys yordamida tizimning holati real vaqt davomida nazorat qilish imkoni paydo bo'ldi.




17-rasm. Gibridd energiya manbai monitoringining Veb interfeysi ko'rinishi

IoTga asoslangan monitoring tizimi orqali gibridd energiya ta'minoti manbalarida nosozliklarini o'z vaqtida aniqlash va tezkor xizmat ko'rsatish orqali tizimning ishlash samaradorligini 3-4 % ga oshirish imkonini berdi. Qurilmalarni uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlash gibridd energiya ta'minoti manbalari asosida amalga oshirilgan bo'lib, IoT asosida monitoring tizimini qo'llash orqali telekommunikatsiya qurilmalari energiya taminoti manbalariga texnik xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiya vaqtini 8-11% ga qisqartirish imkonini beradi.


Dissertatsiyaning **“Sun'iy intellekt asosida telekommunikatsiya qurilmalari gibridd energiya ta'minoti manbalarining holatini bashoratlash”** deb nomlangan beshinch bobi gibridd energiya ta'minoti manbalarini ishlab chiqargan energiyasi va telekommunikatsiya qurilmalarini iste'mol quvvatini bashorat modelini ishlab chiqish masalalariga bag'ishlangan.

